
Qo'shtepada "Tashabbusli byudjet" samarasi: Muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda

Qo'shtepa tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasida o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suvi, elektr ta'minoti, shuningdek maktablardagi muammolar ham bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

Jumladan, "Qo'rg'oncha" MFY hududidagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Tashabbusli byudjet" loyihasining birinchi mavsumida mahalla aholisi tashabbusi va yakdilligi tufayli qo'lga kiritilgan g'oliblik asosida ta'lim dargohining tashqi tomon devor qismini panjaralashtirish, sinf xonalarini pollashtirish, maktab hududiga asfalt yotqizish, tashqi ko'rinishi (fasad)ni ta'mirlash, shuningdek quyosh panellarini o'rnatish ishlari olib borilmoqda.





